

ISSN 2181-7138

# МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**1/3-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

<b>Karimjonov A.</b> “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta‘lim tizimini takomillashtirish davr talabi .....	308
<b>Matupayeva Sh. Z.</b> Inklyuziv ta‘limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati .....	312
<b>Ochilov F. I.</b> Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish imkoniyatlari .....	319
<b>Jabborova O., Saparbayeva D.</b> Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi diagnostikasi .....	327
<b>Sultanov T. M.</b> Ilk boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining muhim jihatlari va izohi .....	335
<b>Maxmudova D. M., Mirxalilova N. A.</b> Funktsional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari .....	340
<b>Ochilov F. I., Ashurova F. S.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari .....	347
<b>Hikmatov I. M., Ochilov F. I.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari .....	355
<b>Rustamova N. X.</b> “Boshlang‘ich ta‘limda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanining ahamiyati .....	364
<b>Usmonova Q. S.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzluksizlik .....	370
<b>Karshiyeva D. E.</b> Boshlang‘ich ta‘lim sotsiologiyasi mazmuni .....	376
<b>Abdurashidov A.</b> Maktabgacha ta‘lim pedagogikasining dolzarb muammolari .....	382
<b>Назирова Г. М.</b> Ривожлантирувчи марказ: Халқ қўшиқлари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида .....	392
<b>Эсонова М. А.</b> Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении .....	402
<b>Арсланова Г. Дж., Панкина М. С.</b> Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников .....	409
<b>Арсланова Г. Дж., Сытина Н. В.</b> Инклюзивное обучение в начальном образовании .....	414

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

<b>Alimardonov A. N.</b> “Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o‘yinlarining ahamiyati” .....	419
<b>Alimov Q. A., Daminov I. A.</b> Sog‘lom turmush tarzining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati .....	425
<b>Toshbayev X. Y.</b> Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo‘llari .....	430
<b>Jo‘rayeva S. B.</b> Kurashchi qizlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari .....	434
<b>Mengliboyeva O. A.</b> Халқ педагогикасида болаларнинг ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти .....	438
<b>Toshboev B. SH.</b> Sport tibbiyotida qo‘llaniladigan tibbiy nazorat usullari .....	443
<b>Alimov Q. A., Xo‘jayev O‘. X.</b> Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi .....	446
<b>Xo‘jayev A. Q.</b> Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi .....	451
<b>Payg‘amova S.</b> Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish .....	455
<b>G‘afforova D. B.</b> Gandbolchilarning hujum va himoyadagi texnik usullarini rivojlantirish metodikasi .....	459
<b>Худайберганов О. К.</b> Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан .....	463
<b>Ашуров Б. Ш.</b> Стритбол в Республике Узбекистан .....	469



## KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TABIIY-ILMIY BILIMLARNI O'RGATISH IMKONIYATLARI

*Ochilov F. I.*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*ChDPU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim mazmuni, tabiiy-ilmiy bilimlar, tabiiy fanlar, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, ijodiy faoliyat, amaliy tajriba.

**Ключевые слова:** содержание образования, естественнонаучные знания, естественные науки, компетентность, компетентностный подход, творческая деятельность, практический опыт.

**Key words:** content of education, natural sciences, natural sciences, competence, competence-based approach, creative activity, practical experience.

Bugungi kunda ta'limning mavjud holati va uning rivojlanish darajasi murakkabligi va qarama-qarshiliklarga boyligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimi oldiga yangidan yangi talablarning qo'yilayotganligi, jumladan, kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilayotganligi, uning mazmuni va fanlarni o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi har tomonlama rivojlangan, amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan ijodiy faol, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'la oladigan, tabiatni sevadigan, uning boyliklarini asrab-avaylaydigan o'quvchilarni shakllantirishdan iborat. Ushbu yondashuv doimo ta'lim maqsadini aniq belgilashdan boshlab, uning natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarning har biri, ulardagi hatto mimikani xatti-harakatlar uchun ham ijodiy faoliyatni talab etadi va natijada ta'lim jarayonining samaradorligini, ilmiyligini, yangi sifat darajasiga ko'tarilganligini belgilab beradi. [6]

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida "Tabiiy fanlar" darslarida bajariladigan barcha mashqlar bevosita tabiiy muhit bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mazkur darslarda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan bir qatorda tayanch kompetensiyalarni hosil qilish uchun fanlararo aloqadorlikni ta'minlovchi hamda integratsiya prinsipi asosida tanlanadigan



topshiriqlar, o'quv vaziyatlari, matnlar, illyustratsiyalar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali vositalar ham muhim ahamiyatga ega. "Tabiiy fanlar" darslarida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq qilish kelajakda yosh avlodni atrof-muhit ekologiyasini asrashga o'rgatish, qishloq xo'jaligi va sanoatning muayyan turlarida faoliyat ko'rsatishga yo'naltirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish [1; 5-modda], mol-mulk, moddiy va madaniy boyliklarni asrash [2; 48-modda], tabiiy boyliklarni ko'paytirish, tabiatni asrab-avaylash [3], unga nisbatan qadriyati munosabatda bo'lish, kelajakda uning boyliklarini ko'paytirish va avaylab-asrashga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, tabiat: yer, suv, o'simlik va jonivorlar olami o'quvchi-yoshlar uchun ilhom va ijod manbai hisoblanadi. Ularda kreativ tafakkurni shakllantirishda tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, uning sir-asrorlaridan xabardor bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda "Tabiiy fanlar" darslarida o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ijodiy ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Buning uchun ular bilan rasmlar chizish, gullar va daraxtlarni parvarishlash, qushlarni e'zozlash, o'simliklardan turli buyumlar yasash, jonli burchaklar tashkil etish kabi mashqlarni tez-tez o'tkazib turish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'quvchilarning amaliy tajribalari ular o'rgangan bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Amaliy tajribaning asosini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ta'lim mazmuni va hayotiy tajribalar tashkil etadi.

Ma'lumki, ta'lim mazmuni 4 ta muhim tarkibiy qismdan iborat:

1) o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv materiallari – bilimlar; 2) faoliyat usullarini amalga oshirish imkonini beradigan faoliyat usullari – mashqlar; 3) ijodiy faoliyat tajribasini amalga oshirishga ko'maklashadigan topshiriqlar; 4) his-tuyg'u, qadriyatlarni ifodalash imkonini beradigan ijodiy faoliyat natijalari. Ta'lim mazmunining ushbu tarkibiy qismlari o'quvchilarda "bilish", "amalga oshirish", "intilish", "yaratish" layoqatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tajribaning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarkibiy qismlarini o'zlashtirish o'quvchilarda o'quv, madaniy kompetensiyalarni namoyon qilish imkonini beradi. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyat ko'rsatish tajribalarini kengaytiradi. Mazkur tajribalar "Tabiiy fanlar"ga oid bilimlarni o'zlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash natijasida takomillashadi.

“Tabiiy fanlar” darslarida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishlarini ta’minlaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar fanga oid nazariy bilimlar va kompetensiyalarni egallash bilan bir qatorda, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olish layoqatini egallaydilar. Fanga oid kompetensiyalar “Tabiiy fanlar” darslarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llashlari uchun qulaylik yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida o‘quvchilar “Tabiiy fanlar” darslarida aniq bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiribgina qolmasdan, balki tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy faoliyat tajribalarini ham bosqichma-bosqich egallaydilar.

Biz quyida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rganish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hosil qilinadigan kompetensiyalarning tavsifi, o‘quvchilarda shaxsiy tajribani hosil qilishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatishga harakat qildik:

1. “Tabiiy fanlar” va boshqa fanlar orasidagi aloqadorlik asosida shakllantiriladigan kompetensiyalar. Bu kompetensiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “Tabiiy fanlar” darslarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish orqali shakllanadi. Mavjud yondashuvlarga tayangan holda tabiiy-ilmiy bilimlar mazmunini tanlash, ularni hayotda qo‘llash imkonini beradigan, o‘quvchilarda atrof-olam haqidagi tasavvurni hosil qiladigan, uni bilish hamda amaliy faoliyatda qo‘llash jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish nuqtayi nazaridan yondashildi. Tabiiy-ilmiy bilimlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatining eng zarur qismi hisoblanadi. Tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan har qanday faoliyat atrof-olamni o‘zgartirish va uni ijodiy anglashga qaratiladi. Tabiiy-ilmiy bilimlar o‘quvchilarda atrof-olam haqidagi aniq tasavvurni hosil qilish bilan bir qatorda, faoliyat usullarini amalga oshirish va ijod qilish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Tabiiy-ilmiy bilimlarni bilish faoliyati bilan bog‘liq tajribalar ularda olamni anglash va uni ijodiy o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarda atrof-olamni anglashga nisbatan qiziqish vujudga keladi. Natijada ular yetishmagan ma’lumotlarni faol izlashga kirishadilar.

O‘quvchilarda atrof-olamga nisbatan qiziqish fanga oid bilimlarni faol qo‘llash ko‘nikmalarining shakllanganligida namoyon bo‘ladi. Tabiiy-ilmiy bilimlarga qadriyat sifatida yondashish, olamni bilish va anglash vositasi sifatida munosabatda bo‘lish tajribasini shakllantiradi. Bunda o‘quvchilar o‘quv jarayonining maqsadi atrof-olam bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganish va o‘z faoliyatida qo‘llashdan iborat ekanligini bilib oladilar.



Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan tabiiy-ilmiy bilimlar o'quvchilarni olamni yaxlit idrok etishga undaydi. Buning natijasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan individual yondashuv va hissiy-qadriyatli faoliyat tajribasi hosil bo'ladi. Atrof-olamga moslashish uchun o'quvchilar ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab, mustaqil harakatlanish, tabiat bilan ongli muloqot o'rnatish, tabiat hodisalarining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash layoqatiga ega bo'lishlari lozim.

Tabiiy-ilmiy bilimlar darslikdagi o'quv materiallari, illyustratsiyalar, topshiriqlar va audio-video vizual vositalar orqali o'quvchilarga taqdim etiladi. Ushbu jarayonda tabiatdagi ranglarni aniq ifodalash hodisalarini to'liq tavsiflash, o'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabat va aniq tasavvurni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tabiiy-ilmiy bilimlarni qamrab olgan o'quv materiallarida fanlararo aloqadorlik ham ta'minlanishi kerak.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida shakllanadigan tayanch kompetensiyalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrof-olamni chuqur o'zlashtirishlari uchun tabiiy-ilmiy bilimlarning fanlararo aloqadorlik asosida ifodalanishi ham juda muhimdir. Bu usul yordamida ular ko'proq tabiiy-ilmiy bilimlarga va ular yordamida shakllanadigan faoliyat tajribasiga ega bo'ladilar.

Ma'lum faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasini orttirish bilimlar orqali egallangan faoliyat usullarini qayta-qayta, takror bajarishni talab qiladi va bu jarayonda ushbu bilimlar ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi. Ta'lim mazmuniga faoliyat usullari, asosan, faoliyatni takrorlashga qaratilgan vazifalar – muayyan harakatlarni yangilash va takrorlash bo'yicha topshiriqlar shaklida kiritiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rganish natijasida hosil bo'lgan kompetensiyalar ma'lum faoliyat usullarini o'zlashtirish orqali mustahkamlanadi. Ular o'z ichiga belgilangan me'yorlarni bajarish, faoliyat qoidalariga amal qilish, umumiy ko'nikma va malakalar tizimi, tashqi hamda ichki ko'nikma va malakalarni bajarishga tayyorlikni qamrab oladi. Integratsiyalashgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali o'quvchilarning ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirishlari ta'minlanadi hamda hozirda va kelajakda uzluksiz mustaqil ta'lim olishlari uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ularni istiqbolda uzluksiz tarzda mustaqil bilim olishga rag'batlantiradi.

3. Tabiat bilan bog'liq ijodkorlik sohasidagi tayanch kompetensiyalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim jarayonida faqat qayta-qayta takrorlanuvchi vazifalarga emas, balki vujudga kelgan yangi muammolarga ham yechim topishi nazarda tutiladi. Bunday muammolarni yechish jarayonida



istiqbolda amalga oshiriladigan faoliyat usullarini o'zlashtirish, ularni yangi vaziyatlarga ko'chirish, ya'ni ijodiy faoliyat tajribasi hosil qilinib, u o'quvchilarni atrof-olamni estetik idrok etishni nazarda tutadi. Ushbu tajriba o'quvchilarning tabiatni estetik idrok etish bilan bog'liq faoliyatlari, tajribalarida namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmuniga ijodiy faoliyat tajribasi, asosan, matnga doir ijodiy topshiriqlar shaklida kiritiladi.

Ijodiy faoliyat usullari tabiat bilan muloqot asosida o'zlashtiriladi. Buning uchun o'quvchilarni "Tabiiy fanlar" darslarida atrof-muhitni anglashga jalb etish, ularning ekologik didi va tafakkurini shakllantirish talab qilinadi.

Ijodiy faoliyat tajribasi moddiy borliqni estetik idrok etish mahsuli bo'lib, u sinfdagi barcha o'quvchilarda bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri, shaxsning amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatishda "Tabiiy fanlar" darslarida tashkil etiladigan muammoli vazifalar muhim ahamiyatga ega. Bunday vazifalarni yechish jarayonida o'quvchilar qo'yilgan muammolarni yechish tajribasini o'zlashtirishlari lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zlashtirilgan bilimlarni o'zining shaxsiy tajribasida qo'llab, amaliy faoliyatiga singdirishdan iborat.

"Tabiiy fanlar" darslarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida muammoli hamda evristika xarakterdagi topshiriqlarga alohida o'rin ajratish lozim. Mazkur darslarda o'quvchilarga "Qushlar bizning do'stimiz", "Yurtim tabiatini sevaman", "O'simliklar – toza hayot manbai" mavzularida referatlar yozdirish, bahs-munozara daqiqalarini tashkil etish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi kompetensiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish taqozo etiladi:

- yangi tushuncha, belgi-xususiyatlar, ma'lum tushunchaning yangi mohiyati, yangi harakat usuli, yangi aloqalarning aks etishi;
- o'zaro bir-birini inkor qiluvchi dalillar, didaktik vazifalar, savol yoki ko'rgazmalilik asosida qurilgan va bayon etilgan o'quv materiallari tarkibidagi ma'lum tushunchalar hamda yangi bilimlar o'rtasida qarama-qarshiliklarning ifodalanishi;
- o'quv materialining didaktik talablari asosida tanlanishi kabilari.

4. Tabiiy-ilmiy bilimlarga oid his-tuyg'ular va qadriyatlar sohasidagi tayanch kompetensiyalar.

O'quvchilarning atrof-olamga nisbatan hissiy-qadriyati munosabati tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, uni ijodiy-estetik o'zlashtirishga undaydi. Ushbu





ehtiyojni qondirish maqsadida “Tabiiy fanlar” darslarida o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, ularda ijodiy faoliyat tajribasini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari, mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shaxsiy emotsional kompetentlik o‘quvchilarning kundalik xatti-harakatlari, amaliy topshiriqlar ustida ishlashlari, o‘quv materiallarini ijodiy o‘zlashtirishlari, o‘zlashtirilgan tabiiy-ilmiy bilimlarni kundalik amaliy faoliyatlarida muvaffaqiyatli qo‘llay olishlarida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, “Tabiiy fanlar” darslarida o‘quvchilar uchun zarur hisoblangan, hayotiy faoliyatlarida muntazam tayaniladigan qadriyatlarni o‘quv materiallari yordamida taqdim etish taqozo etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda atrof-muhit bilan bog‘liq maqsadli tarzda taqdim etiladigan qadriyatlar tizimini amaliyotga yo‘naltirish muhimdir.

Tabiat hodisalarini emotsional baholash faoliyatining mazmuni o‘quv materiallari doirasida o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan matnlar, atrof-olamni tasvirlashga bag‘ishlangan monologik yoki dialog xarakteridagi nutqning ifodaviyligi, atrof-olamning jozibadorligini o‘zida mujassamlashtirgan illyustratsiyalar, qadriyatlar tizimini belgilashga yo‘naltirilgan topshiriqlar darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari mazmuniga singdiriladi.

O‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va o‘zlarini o‘rab turgan atrof-olamga nisbatan munosabatlari, asosan, ko‘rgazmali xarakterdagi o‘quv materiallari yordamida boyitiladi. O‘quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga oid axloq-odob me’yorlari ham “Tabiiy fanlar” darslarida o‘quv materiallari tarkibida o‘quvchilarga taqdim etiladi. Tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat o‘quvchilarning kundalik faoliyatida amal qiladigan asosiy mezonga aylangandagina kompetensiya darajasida shakllanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda “Tabiiy fanlar” darslarida o‘quvchilarda hissiy-qadriyati munosabat tajribasini shakllantirish o‘quv materiallarini adaptiv tarzda strukturalarga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Shu asosda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantiriladigan emotsional-qadriyati faoliyat tajribasining ayrim jihatlarini rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi:

- o‘quv materialining qadriyatlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan mazmuni ta’lim oluvchilarning tabiat va atrof-olamga oid real dunyoqarashi, u bilan bog‘liq qadriyatlarni anglashi, maqsadli xatti-harakatlarni bajarishi, turli nuqtayi nazarlardan maqbulini tanlay olishi, o‘z faoliyati natijasini oldindan ko‘ra olishi, turli voqea-hodisalarni, o‘zi va o‘zgalarning bayonotlari, xatti-harakatlarini baholay olishi, shaxsiy kompetensiyalari



- chegarasini tushunishi, hayotiy hodisalarga o‘z munosabatini bildiradi olishi, ya’ni mustaqil tanlovni amalga oshirishini ta’minlash;
- umummadaniy jihat: tabiat boyliklariga nisbatan qadriyati munosabatda bo‘lish; o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tabiatdan zavqlanishga undash maqsadida samarali tashkil etish va boshqalar;
  - tabiat bilan samarali muloqot o‘rnatish: tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat qoidalarini bilish, tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarda guruhda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish, tabiatga nisbatan salbiy xatti-harakatlarni nazorat qilish va bartaraf etish, o‘zini tabiiy borliqning bir qismi deb bilish va boshqalar;
  - ijtimoiy-madaniy jihat: tabiiy boyliklarni iste’mol qilishda muayyan me’yorlarga asoslanish, tabiat qo‘ynida harakat qilganda sog‘lom turmush tarzi qoidalariga amal qilish, mehnat va oilaviy farovonlikni ta’minlashda tabiat va atrof-muhit imkoniyatlaridan foydalanish, tabiatni e’zozlash fuqarolik burchi ekanligini anglab yetish;
  - shaxsning tabiat bilan aloqadorlikda o‘z-o‘zini rivojlantirish jihati: o‘zini jismoniy, ma’naviy, intellektual rivojlantirish usullarini o‘zlashtirish [4; 19-b.], zaruriy shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzi me’yorlariga rioya qilish, o‘zini chegaralash layoqatini, tashqi sharoitlarga nisbatan mustaqil pozitsiyani egallash layoqatini rivojlantirish [5].

Emotsional-qadriyatlar sohasidagi kompetensiyalarni shakllantirish usuli tabiat bilan yuzma-yuz bo‘lganda kechinmalarni muvofiqlashtirishdan iborat. Kechinma tabiatni qadriyat sifatida qabul qilinishini ifodalaydi. Emotsional kechinmalar tajribasi namoyon bo‘lishining asosiy sababi sifatida tabiat va uning hodisalariga nisbatan qiziqishning vujudga kelishini ko‘rsatish mumkin.

Emotsional-qadriyatlar sohasidagi kompetentlik mazmuni bolaning his-tuyg‘ulari, uning qadriyatlari tizimiga kirgan muayyan tabiiy hodisalarga yo‘naltirilganligini asoslovchi ehtiyojlaridan tashkil topadi.

Mazkur kompetentlik mazmunining o‘ziga xosligi tabiat va uning hodisalariga nisbatan his-tuyg‘ularning boyligi va jadal rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchi ehtiyojlarining uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi, uni tabiat hodisalari bilan bog‘liq faoliyat shakllarini amalga oshirishga undaydi. Tabiat hodisalariga nisbatan subyektiv munosabatini tartibga soladi. Shaxsni atrof-muhit bilan bog‘liq faoliyatga yo‘naltiradi, “Tabiiy fanlar” darslarida o‘quv materiallarining faol o‘zlashtirilishiga sharoit yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 77 b.



2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637. 23.09.2021. ([www.lex.uz/ru/docs](http://www.lex.uz/ru/docs))

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorining 1-ilovasi. ([Ziyonet.uz](http://Ziyonet.uz))

4. Abdullayeva Sh.A. va boshqalar. Zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyasi. – T.: “Komron Press”, 2015. 92 B.

5. Pestereva Yu.V. Realizatsiya kompetentnostnogo podxoda v protsesse postroyeniya sodержaniya obrazovaniya v nachalnoy shkole: dissertatsiya... kandidata pedagoicheskix nauk: – Maykop. 2007 g. S. 198.

6. Salnikova O.A. Klyucheverye kompetensii v sovremennom obrazovanii (<https://yandex.ru>).

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish, ushbu jarayonda hosil qilinadigan kompetensiyalar va ularning tavsifi, o‘quvchilarda shaxsiy tajribani hosil qilishdagi imkoniyatlari atroficha tahlil qilingan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно анализируется преподавание естественно-научных знаний младшим школьникам, сформированные в этом процессе компетенции и их описание, возможности создания личного опыта у учащихся.

#### SUMMARY

This article analyzes in detail the teaching of natural science knowledge to younger students, the competencies formed in this process and their description, the possibility of creating personal experience for students.

